https://hstryres.uz/journal/index.php/makro
2026, № 4 (16)
ISSN-3030-3761

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:
Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжонова
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc)., доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Ғаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиназарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймухамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшкувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)., доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: Https://hstryres.uz/journal/
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university ofUzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web:Https://hstryres.uz/journal/
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	**Akbarov Ravshan Xalimovich** JADIDLAR MA'RIFATCHILIK FAOLIYATINI YOYISHDA "TARJIMON" GAZETASINING O'RNI	4
2	**Ахрарова Амалия Искандеровна** ЭВОЛЮЦИЯ ФОРМАТОВ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ЯПОНИИ: СТАНОВЛЕНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕГИОНАЛЬНОГО ДИАЛОГА	14
3	**Бахранов Шерзад Таштурсунович** ЎЗБЕКИСТОН ССР САБЗАВОТ-ПОЛИЗ ЭКИНЛАРИ ВА КАРТОШКА ИЛМИЙ – ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИДАН	27
4	**Israilov Nodir Raximjonovich** XVI ASR FRANSUZ SHARQSHUNOSLARI ASARLARIDA AMIR TEMUR HAYOTI VA DAVLATCHILIK FAOLIYATINING TADQIQ ETILISHI	39
5	**Kandaxarov Anvarjon Xasanovich** BUXORO XONLIGIDA JO'YBOR XOJALARINING IQTISODIY QUDRATI: SHAKLLANISH OMILLARI VA IJTIMOIY-SIYOSIY TA'SIRI	45
6	**Mamajonov Soyibjon Xalilovich** AMIR TEMUR VA TO'XTAMISHXON MUNOSABATLARI YOZEF FON XAMMER-PURGSHTAL TALQINIDA	52
7	**Mahkamova Zulxumor Murodjon qizi** TURKISTON ASSRNING SOLIQ SIYOSATI TARIXIDA KADRLAR TARKIBINING AKS ETISHI	58
8	**Mirzayeva Zaxra Xayritdinovna** KO'RGAZMA ORTIDAGI IMPERIYA: KAUFMAN DAVRIDA TURKISTONDA MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATINING NAMOYON BO'LISHI	64
9	**Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich** TOŞKENT VOHASINING QADIMGI VA RIVOJLANGAN ÖRTA ASRLAR DAVRI TARIXI VA MADANIYATIGA OID YOZMA MANBALAR XUSUSIDA	71
10	**Nuridinov Turdali Qambarovich., Haydaraliyev Xushnud Muso-zoda** QO'QON XONLIGIDA AHOLINING OMMAVIY ISHLARGA JALB ETILISHI TARIXSHUNOSLIGI	85
11	**Nuridinov Turdali Qambarovich., Haydaraliyev Xushnud Muso-zoda** QO'QON XONLIGI–XITOY O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR XORIJIY TADQIQOTCHILAR TALQINIDA	90
12	**Raxmankulova Matluba Bayxurazovna** XX ASR BOSHLARIDA G'ARBDA TEMURIYLAR KITOBAT SAN'ATINING O'RGANILISHI	96
13	**Razzokova Nigora Olimjon kizi** INCLUSIVE EDUCATION PRACTICES AND THEIR IMPACT ON LINGUISTICALLY DIVERSE LEARNERS IN MULTICULTURAL CLASSROOMS	107
14	**Sadirov Aziz Sirojiddinovich** MUSTAQILLIK ARAFASIDA QASHQADARYO VILOYATIDA YO'L TRANSPORT INFRATUZILMASINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARI	113
15	**Сиддиков Равшан Бердимуратович** ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ХАЛҚАРОЛАШУВИ ТАРИХИГА ДОИР (1997-2016)	120

Normurodov D. R.
«Arxeologiya va etnologiya» kafedrasi dotsenti, PhD.
O‘zbekiston Milliy universiteti
d.r.normurodov@mail.ru

TOŞKENT VOHASINING QADIMGI VA RIVOJLANGAN ÖRTA ASRLAR DAVRI TARIXI VA MADANIYATIGA OID YOZMA MANBALAR XUSUSIDA

ANNOTATSIYA

Maqolada Toşkent vohasining qadimgi va rivojlangan örta asrlar davri tarixi va madaniyatiga oid yozma manbalar kompleks tahlil qilingan. Eng qadimgi yozma manba – Avesto, antik davrga oid Ahamoniylar davri qoyatoş bitiklari, Yunon, Rim, Xitoy manbalari, ilk örta asrlarga oid Xitoy manbalari, rivojlangan örta asrlar davriga tegişli arab-fors tilli manbalar, arxeologik aşyo va tangalardagi yozuvlar asosida vohaning etnik, geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti körib çiqilgan. Tadqiqotda manbalarning turli toifalari, ularning işonçliligi va informativlik darajasi baholangan. Toşkent vohasining qadimgi davrda yaşagan “sak” qabilalari, ilk örta asrlardagi turk-suğd simbiozi, rivojlangan örta asrlarga oid şaharlari, qişloqlari, iqtisodiyoti, şuningdek, aholining diniy e’tiqodlari va madaniy an’analari haqidagi yozma manbalardagi ma’lumotlar tizimlaştiriladi. Uşbu manbalar Markaziy Osiyoning boşqa mintaqalari bilan madaniy aloqalarni örganişda muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd qilingan.

Kalit so‘zlar: Choch, Şoşh, Iloq, Toşkent vohasi, antik davr, ilk o‘rta asrlar, rivojlangan o‘rta asrlar, yozma manba, Avesto.

KIRISH

Sirdaryoning örta oqimi öng sohilidagi Ohangaron, Çirçiq va Keles daryolari havzalarini öz içiga olgan Toşkent vohasining aholisi, geografik örni va alohida joylari, tarixi va madaniyati bilan boğliq ayrim ma’lumotlar yozma manbalar, arxeologik aşyolar va tangalardagi yozma ma’lumotlarda uçraydi. Ular qadimgi va rivojlangan örta asrlardagi Toşkent vohasida keçgan tarixiy jarayonlar dinamikasini tahlil qiliş, qiyolaş imkonini beradi. Markaziy Osiyoning muhim strategik hududlaridan biri bölgan Toşkent vohasi (qadimda Çoç, IX–XIII asrlarda Şoş-Iloq) tarixiy-madaniy ölka sifatida manbalarda keltirilgan. Vohaning aholisi, joylaşuv örni, madaniyati haqida dastlab “Avesto”ning “Yaşt (Yaştho)” kitobida, şuningdek, mil. old. V – II asrlarga oid qadimgi fors, yunon, rim, xitoy, suğdiy, örta fors tillaridagi yozma manbalarda bir qator ma’lumotlar uçraydi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

“Avesto”ning “Yaşt” kitobida Toşkent vohasida yaşagan “danay turlar”i haqida eslatilgan [7; 11]. “Danay” atamasi Sirdaryoning qadimgi nomlaridan biri hisoblangan. U Yaksart (Sirdaryo) bilan bir vaqtda qöllanilgan. Şuning uçun Sirdaryoning örta oqimi öng sohilida yaşagan sak qabilalari “Yaksart orti saklari” deb ham atalgan[4].

Toşkent vohasining sak qabilalari (aholisi) tögrisida Ahamoniylar davri qoyatoş bitiklaridagi yozuvlarda, jumladan, mil. old. VI asrlarga tegişli “Behistun”, “Persopol” va “Naqşi Rustam”da uçraydi. Bu tiriklarda saklarning Ahamoniylarga duşman ekanligi yozilgan. Sak qabilalarining uyuşmasi mil. old. I ming yillikning örtalarida hozirgi Markaziy Osiyoning şimoli-şarqiy hududlarda asosan çorvaçilik bilan şuğullanib, köçmançi hayot keçirganlar. Ular örnaşgan hududlariga köra uç guruhga bölingan. Bu guruhlar: 1-“saka-tigraxauda”, 2-“saka-tiay-daraya” va 3-“saka-xaumavarga”lar şaklida qayd qilingan. Ulardang “saka-tigraxauda”, “Yaksart orti saklari” Toşkent vohasida yaşaganlar [17; 33]. Bitiklarda Skunha nomli sak sardori asirga olinganligi haqida ma’lumot va uning börtma şaklda işlangan tasviri bor [24; 34].

Hozirgi Toşkent vohasi ahamoniylar saltanatining çegaradoş hududi bölgan. Hozirgi Eronning Hamadon viloyati Kirmon şahri yaqinidagi qoyaga mixxat bilan qadamgi forsiy, elamiy hamda akkad tillarida bitilgan yozuv bitilgan va tasvirlar aks ettirilgan Bihistun bitiklarida keltirilgan 23 viloyat qatorida “saklar” va Skifiya haqida ma’lumot keltirilgan. V.V.Latişev bu bitiktoşdagi Skifiyani Markaziy Osiyodagi skif (sak)lar yurtiga mos keladi deb hisoblaydi. Skunhaning asir olinişi saklarning ahamoniylarga qarşi özlari yaşagan hududlaridan taşqaridagi hududlarda ham kuraş olib borganligini körsatadi [32]. Bihistun bitiklaridan yana bir narsa ma’lumki, saklar uzoq muddat ahamoniylarga soliq tölamagan, aksinça imkon qadar mustaqil bölişga urinişganlar [31; 38].

Ahamoniylarning hozirgi Eronning Şeroz şahridan 50 km uzoqlikdagi joylaşgan Naqşi Rustam qoyatoş bitigida keltirilgan “yoyçi (kabonçi) saklar”ni V. V. Struve Markaziy Osiyoda yaşagan sak-massagetlar deb hisoblaydi [32; 44]. Saklarning köçmançi çorvadorlik turmuş tarzi duşman tomonidan ularning böysundirilişini murakkablaştirgan. Bundan taşqari, axomaniylar tomonidan ötroq aholi yaşaydigan Suğd, Xorazm, Marğiyona, Baqtriya viloyatlaridan farqli ölaroq, Çoç vohasi daşt va çöllarga tutaş hududlarni egallagan. Bu hududiy örnaşuv Çoçda yaşagan saklarni boşqarişni murakkablaştirgan. Erkin kun keçiruvçi saklar biror joyni doimiy qönim topib yaşamagan, işlab çiqarişga asoslangan dehqonçilik maydonlarida öz qişloqlariga asos solib muqim yaşamagan. Toşkent vohasining çorvani boqişga qulay bölgan daşt va toğ oldi hududlari saklar hayoti uçun juda qöl kelgan. Ular uşbu vohadagi ötroq madaniyatda yaşay boşlagan aholi vakillari bilan yaqin iqtisodiy va madaniy aloqalar qilişgan [38]. Toşkent vohasida işlab çiqariş xöjaligiga ixtisoslaşmagan turmuşdagi saklarda ahamoniylarga tölaş uçun behisob boyliklar ham yiğmagan. Yunon tarixçisi Eforning (mil. old. 405 – 330-yillar yaşagan) “Parça”larida saklarning boylik ketidan quvmaganliklari, ular bir-birlariga halol munosabatda bölganliklari, şaxsiy mulk orttirilmaganligi, mol-mulk va boşqalarga umumlaşib egalik qilganliklari haqidagi ma’lumotlar keltirilgan [31]. Bu ma’lumotlar nafaqat Yevrosiyo daştliklarida yaşagan saklarning balki, Toşkent vohasida mil. old. I mingyillik birinçi yarmiga qadar yaşagan saklarning turmuş tarzi haqidagi tasavvurlarni hosil qiliş yordam beradi [38].

Saklar bilan boğliq ma’lumotlar yunon tarixçisi Gerodot (taxminan mil. old. 484 – 425-yillarda yaşagan) ning “Tarix” asarida ham ma’lumotlar berilgan. U forslar barça skiflarni saklar deb ataşlari, sak va skif bir xalq ekanligi haqida yozib

qoldirgan [19; 26]. U “saka-xaumavarga”larni “amyurgiya saklari” bilan ham tenglaştiradi[19]. Gerodot mil. old. 455–445-yillarda qilgan sayohati davrda voqealarni guvoh bölgan kişilardan bilib olganligi bois u keltirgan ma’lumotlarni muhim hisoblanadi.

Mil. old. 64/63 – milodiy 23/24-yillarda yaşab 17 kitobdan iborat “Geografiya” asarini yozgan yana biri yunon muallifi Strabon ham saklar haqida ma’lumot bergan. Uning “Geografiya” asarida Kaspiy dengizining narigi tomonida yaşovçi xalqlarning bittasini sak, ikkinçisini massagetlar ekanligini yozgan. Massagetlarning toğlarda, tekisliklarda, daryolardan hosil bölgan botqoqliklarda, orollarda yaşaydilar yaşaydigan qismlari borligi, ulardan “Quyoşga siğinuvçi”lari qurbonlik uçun otni söyişganliklari, barça massaget qabilalarining hayot tarzi bir xildaligi, marhumlarni dafn etiş marosimlari, urf-odatlari, fe’l-atvorlari bir-birlarinikiga öxşaş ekanligi, biroq boşqa xalqlar bilan munosabatda soddadil, pok va haqiqatparvar ekanliklarini qayd qilgan [31]. Garçi toğlar va daryolar kabi turli tabiiy tösiqlar ajratib tursa-da, barça massaget va sak qabilalari yaşagan hududlar, jumladan, Toşkent vohasidagi saklarning hayot tarzida umumiylik borligini Strabonning yuqori keltirilgan ma’lumotlaridan payqasa böladi.

Strabon saklar bilan suğdiylarni Yaksart (Sirdaryo) ajratib turişini qayd qilgan [26; 43]. U “Tanais” deb ataladigan daryoning Yaksart ekanligini izohlanadi. U tilgan olgan Imay toğ tizimisi ayrim tadqiqotçilarning fikriça Oloy-Pomir tizmasi bölgan [39]. Bu hududlar hozirgi Toşkent vohasining janubi-şarqiga töğri keladi. Xullas, Strabon saklar yaşagan hududni aniq berganligi bilan ahamiyatlidir.

15–60-yillarda yaşagan qadimgi rimlik Pompey Melaning “Mamlakatlar tavsifi haqida” yoki “Geografiya” asarida keltirilgan ma’lumotla Geradot keltirgan ma’lumotlarga öxşaş. Pompey Mela ham Gerabot kabi iörklarga urğu berib, “...txössagetlar (Tussagetlar)” va “iörk”larning keng örmonda ovçilik bilan tiriklik qilişlarini qayd etadi [39]. Tussagetlar balki, massagetlarning bir guruhi bölişi mumkin.

Mil. old. 79–23/24-yillarda yaşagan yana bir Rimlik muarrix Gay Pliniy Sekund (Hay Pliniy Sekund) özining mil. old. 77-yili yozilgan “Tabiiy tarix” asarida ma’lum ma’noda Pompey Melaning tafsilotlarini töldiradi. U mil. old. IV asrning 20-yillarida Dimodamning Sirdaryo ortiga (şimoliga) ötganligi, daryoortidagi aholi (saklar) bilan yuzma-yuz kelib haqida ma’lumot keltirgan. Sekund ham Geradot va Mela kabi Tanais, ya’ni Sirdaryo ortidagi xalqlar orasida “txössagetlar”ni tilga olgan. Pliniy ham Sirdaryo ortiga (şimoliga) ötib u joyda yaşaydigan etnos (sak) lar bilan uçraşgan Dimodamga asoslanib, Sirdaryo ortida köplab sak-skif uruğlari uyuşmasi yaşaşini qayd etgan[39]. Pliniy ham Gerodotdek forslar ularni özlariga yaqin yaşovçi qabilani saklar deb ataşini qayd qilgan [21]. Antik davr mualliflari asosan saklarni “qudratli, kuçli, çaqqon, mard kişilar” sifatida ta’riflaşgan [1; 21].

125-yil “Kemaçilik san’ati” asarini yozgan yunon muallif Dionisiy Periegit “Suğdiyonaning narigi tarafida, Yaksart (Sirdaryo)ning oqimi böylab, yoy bilan jang qiluvçi” saklar haqida ma’lumot bergan, II asrda yaşagan rimlik adib Kliment “Gilamlar” asarida yoyçi sak ayollari haqida yozgan [31]. Bu ma’lumotlar qadimda Çoç (Çaç, Şoş) deb yuritilgan hozirgi Toşkent vohasi aholisiga tegiş ekanligini

anglatadi. Çunki, Çoçning yoylari, kamonlari va kamonçilari maşhur bölgan [38].

Antik davr manbalariga qaraganda Toşkent vohasi – Çoçning şu davrdagi aholisi nafaqat sak qabilalaridan, balki boşqa bir guruhlardan ham iborat bölgan. Mil. old. 90–30-yillarda yaşagan yunon muallif Diodorning “Kutubxona” asarida keltirilgan ma’lumotga qaraganda sak podşolari midiyalik asirlarni Tanaid (Tanay – Sirdaryo) böyiga köçirib ötkazişgan [31]. Köçirilgan bu asirlar keyinçalik mahalliy aholi bilan aralaşib ketgan bölişlari mumkin [8]. Buni mil. old. VI asrlarga oid hind eposi “Maxabxarata”ning “Aşvamedxa” qismidagi ma’lumot ham tasdiqlaydi. Ma’lumotda saklar ötganlar ruhiga qurbonlik qiluvçi qabilalardan ekanligi keltirilgan [21]. “Aşvamedxa” da keltirilişiça, hind hukmdori Yudxişxira ötkazgan “qurbonlik marosimi”da turli mamlakatlardan kelgan mehmonlar qatorida toharlar, qanqalar (qanğarlar) va Sirdaryoning şimoli-şarqi (Toşkent vohasi)dan kelgan saklar ham iştirok etgan [21; 37]. Bu Çoçlik saklarning mintaqaviy va xalqaro aloqalarda iştirokidan ham darak beradi.

Toşkent vohasining qadimgi va ilk örta asrlar tarixi va madaniyatini örganişda qadimgi xitoy tilidagi yozma manbalarning ahamiyati katta. Bunday ma’lumotlar Xitoylik sayyohlarining kundalik va esdaliklari, saroy solnomaçilarining keltirgan ma’lumotlari orasida uçraydi. Ammo ulardagi voqealar doim ham xolis yoritmagan, saroy manfaatlariga qarab yozilgan. Şu bois ularni tahlil qiliş talab etiladi. Nima bölganda ham Xitoy tilidagi yozma yodgorliklar voqealarning tizimliligi (yillar ketma-ketligi) bilan ajralib turadi.

Xitoy imperatori saroyining boş bitikçisi va qadimgi xitoy tarixçisi Sima Szyanning (yoki Simö Çjan, taxminan mil. old. 145 – 86-yillarda yaşagan) “Şi szi” (“Tarixiy qaydlar”) asarini 130 bobli bölimning “Le çjuan” (“Hayot tavsifi”) nomli beşinçi bölagida hun (xun) qabilalarining Çoç vohasining şimoliy çegaralarida paydo bölişi va mahalliy sak qabilalari bilan munosabatlari haqida ma’lumot keltirilgan [13].

Xitoyning Xan sulolasi solnomaçisi Ban Guning (mil. old. 32 – 92-yillarda yaşagan) mil. old. 206 – milodiy 25-yillar tarixi yozilgan “Xan-şu” (“Xan tarixi”) asarida Xitoydan yönalgan savdo yöllarining bir tarmoği ğarbdagi Farğonadan, ikkinçi tarmoği Çoçdan ötgani qayd qilingan [13]. Unga köra Çoçning şimoli-şarqiy hududlari hunlarga tobe mulklar bölgan [13]. Yuqoridagilardan taşqari, Ban Gu usunlar, ruziyelar (yueçjilar) va hunlar bilan boğliq voqealar tafsilotida Çoç vohasini ham tavsiflab ötgan [13].

Toşkent vohasining antik va ilk örta asrlardagi tarixiy nomi Çoç (suğdiyça, c’c) bölganligi ma’lum. Bu vohasining qadimgi tarixi bevosita Qanğ (konfederatsiyasi) davlati va undan ajrab çiqqan mustaqil davlatlar tarixi bilan boğliq. II–III asrlarning birinçi yarmiga oid Çimkent yaqinidagi Kultepa şahri xarobasidan topilgan pişgan ğiştning yuzasiga suğdiy yozuvda Çoç siyosiy atama sifati keltiriladi [20]. 262-yilga oid Sosoniy podşosi Şopur I ning örta fors tillidagi “Ka’bai Zarduşt” bitigida esa Çoç mulki Suğd va Çoçiston (Çotqol-Qurama) toğlariga qadarligi ta’kidlanadi [18; 28; 35]. “Çoç” Sosoniylar hukmdori Şopur I ning 262-yildagi yurişlariga bağişlangan “Ka’bai Zarduşt” bitiklarida “Köh-i Çoç” (“Çoç toğlari”) şaklida uçraydi [28].

Uraldagi Keçevo qişloğidan topilgan III–IV asrlarga oid suğdiy yozuvli idişda

“Çoç xalqi (Çaçan naf)ga tegişli... buyumlardan” deyilgan bitik aniqlangan. Bu yodgorlik çoçlik xioniy hukmdorga taalluqli bölgan [40].

Toşkent viloyati Oqqörğon tumanidagi Qanqa (Qanha) şahri xarobasidan topilgan sopol idişdagi turk runiy bitigini ham ahamiyatli manbalardan biri deb hisoblasa böladi [15]. Bu bitik çoçda suğdiy til va yozuv qatorida qadimgi turkiy til va yozuv ham muomalada bölganini körsatadi. Bu Toşkent vohasi aholisining turk xoqonligi davrida ikki tillilik holatini belgilaydi.

Ilk örta asrlardagi Toşkent vohasidagi tarixiy voqealar, boşqaruv tizimi, uni boşqargan sulolalar faoliyati, hukmdorlarning ismi va unvonlari, ular boşqargan yillarni suğdiy, xitoy, arab tillaridagi yozma manbalar hamda numizmatik materiallar orqali örganiş mumkin. Xususan, Suğd tilidagi manbalar orasida Afrosiyob şahar xarobasidan topilgan VII asrga oid Suğd podşosi Avarxuman huzuriga kelgan elçilar orasida çoçlik elçi ham kelganligi haqida ma’lumot bor. Bu ma’lumot elçilardan birining xalat etagidagi 16 qator yozuvda aks etgan. Afsuski, matnda Çağoniyot elçisi Bukarzotning sözlari töliq saqlangan bölsa-da, Çoçlik elçining sözlari uzilib qolgan [18].

VIII asrga oid hozirgi Tojikiston Respublikasining Panjikent tumanidagi Zahmatobod qişloğidan topilgan Muğ toği arxiv hujjatlarida ham Çoç elçisi haqida ma’lumot uçraydi. Hujjatning A-14 raqamida Çoç-Suğd-Farğona va Turk xoqonligining Arab xalifaligiga qarşi ittifoqi keltirilgan. Unda Panj hukmdori Devaştiçning Çoçga yuborgan elçisi Fatufarnning axboroti keltirgan. Xujjatdan ma’lum böladiki, elçi Fatufarn Çoçga kelib maktublar egalariga topşirgan, ammo, uning ortga qaytiş uçun imkon topmayotgan bölgan. Bu elçilik aloqalari haqidagi ma’lumot Turk xoqonligi davrida Çoçning mustaqil boşqaruvidan darak beradi.

Örta Osiyo va Şarqiy Turkiston örtasidagi qadimgi aloqalarni yoritişda suğd tilidagi tijorat yozişmalari muhim ahamiyatga ega. Xususan, 1907-yilda arxeolog Aurel Steyn tomonidan Dunxuan yaqinidagi qadimgi qorovulxonadan topilgan va taxminan IV asr boşlariga oid «Qadimgi xatlar» (Sogdian Ancient Letters) deb nomlangan suğdiy tijorat yozişmalari Buyuk ipak yöli böylab faoliyat yuritgan suğdiy savdogarlarning Xitoydagi hayoti, savdo işlari va aloqalari haqida noyob ma’lumotlar beradi. Garçi bu yozişmalarda Çoç nomi bevosita tilga olinmasa-da, ular Örta Osiyo, jumladan Çoç vohasi savdogarlarining Buyuk ipak yöli tizimidagi umumiy faoliyat kontekstini tuşunişga yordam beradi. Şuningdek, IX asrga oid, Şarqiy Turkiston (hozirgi XXRning Sinszyan-Uyğur muxtor rayoni)dan topilgan suğdiy tildagi «Xalqlar röyxati» («Nafnamak») manbasida suğdiylar va buxoroliklar qatori çoçliklar ham tilga olinadi[3]. Bu ma’lumot çoçliklarning Buyuk ipak yölidagi savdo-tijorat faoliyatida faol iştirok etganini, şuningdek Şarqiy Turkistongaça çözilgan keng mintaqada öz nom-nişoniga ega bölganini tasdiqlaydi.

Toşket vohasining ilk örta asrlar tarixi xitoy yilnomalarida ham izçil aks etgan. Bular qatorida «Veyşu» (VI asr), «Beyşu» (VII asr), «Suyşu» (VII asr), «Tundyan» hamda «Tanşu» (VIII–X asrlar) kabi yirik tarixiy-geografik bitiklar alohida örin tutadi. Jumladan, 506–572-yillarda yaşagan xitoy tarixçisi Vey Şouning 550–570-yillarda yozilgan «Veyşu» asarida Çjeşe (ba’zi transkripsiyalarda – Çiaçiat) davlati haqida ma’lumot keltirilgan bölib, bu ma’lumot VII asrga oid «Beyşi» asarida ham

takrorlanadi. Mazkur manbalarda 437-yilda mustaqil Çoçdan Xitoyga elçilar yuborilgani qayd etiladi – bu dalil Çoç davlatining V asrda allaqaçon mustaqil taşqi siyosat yurita olgan subyekt sifatida şakllanganini körsatadi. Bundan taşqari, «Tundyan» asarida Çoç davlatining Xitoydagi Suy sulolasi (581–618) bilan olib borgan diplomatik aloqalari ham tilga olinadi[45]. Bu ma'lumotlar Çoç vohasining Xitoy bilan nafaqat savdo, balki rasmiy-diplomatik darajadagi aloqalarga ham ega bölganini tasdiqlaydi.

Buyuk ipak yöli orqali Xitoyga borganlar qatorida çoçliklar haqida ham ma'lumotlar uçraydi. Jumladan, Dungxuangning Sungxua qişloğida yaşagan Örta Osiyolik muhojirlar qatorida Çoç – "şi"liklar Şi Şulödan, Şi Mopölar nomi xitoy tarixçisi Li Minvey "Suytan siçayu çjilu" asarining 217-betida keltiradi [46].Çoç vohasining VIII–XIII asr boşlariga oid madaniyati tarixini yoritişda arab va fors tilli manbalarning örni beqiyos.

Arab tilli manbalar sirasiga Abulqosim Xordadbeh qalamiga mansub, taxminan 232 hijriy (846–847- yilda yozilgan "Yöllar va mamlakatlar kitobi (Kitab al-masalik va-l-mamalik)" asarida mintaqaning köplab şaharlari qatori Şoş, şuningdek Isfijob şaharlariga ta'rif berib ötgan [26].

Abu Is'hoq al-Istahriyning "Yöllar va mamlakatlar kitobi (Kitab al- masalik va-l-mamalik)" asarida va unga işlangan xaritada Şoş viloyati haqida ma'lumotlar keltirilib ötilgan. Keyinçalik asar noma'lum muallif tomonidan arab tilidan fors tiliga tarjima qilingan. Istahriy öz asarida Movarounnahrdagi bir qator viloyatlarning tabiiy örni va boy ma'dan zaxiralarini bayon qilişda Şoş va Iloqdagi konlar borasida ham fikr bildirgan. Binkatni Şoşning boş şahri ekanligini qayd etgan. Uning işini keyinçalik Ibn Havqal davom ettirgan va ma'lumotlarni töldirgan [26].

Arab tilli manbalar orasida Şamsiddin Abu Abdulloh Muqaddasiyning taxminan 375 hijriy (985–986)-yilda yozilgan "Iqlimlarni anglaşning gözal taqsimoti (Axsan-at-taqsim fi marifat al-aqalim)" muhim örin tutadi. U özidan odingi geograflarning işlaridan unumli foydalanib, Movarounnahrning şimoli-şarqiy va şarqiy hududlari, jumladan, Çoç vohasi borasidagi ma'lumotlarni töldiradi [26].

Mahalliy qomusiy olimlardan biri Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar (Al-asar al-boqiya anil-qurun al-holiya)" asarida keltirilgan voqealar bayonida, şuningdek, "Mas'ud qonuni – falakiyot va nujum böyiça jadvali (al-Qonun al-Ma'sudiy fi-l-hayat va-n-nujum)" dagi geografik joylarning örnini körsatişda hamda "Hindiston" kabi asarlarida Çoç–Şoş–Toşkent haqida ayrim va umumiy ma'lumotlar keltirilgan [6; 26]. Jumladan, "Hindiston" asarida "Toş" sözi turkça ekanligi, arabçada esa "Şoş" şaklini olganligi qayd etilgan. Unga köra, "Toşkand – toşli qişloq demakdir. U juğrofiya kitobida u Toş-qal'a deb nomlangan" [6].

Tabariyning "Tabariy tarixi" asarida Arab xalifaligi davridagi yurişlar va unda istiloga qarşi şoşliklarning iştiroki aks ettirilgan [25]. Tabariy işini davom ettirgan mualliflardan biri Ibn al Asir bölib, uning "Mukammal tarix (Al – komil fit-tarix)" asaridagi tarixiy voqealar va unda keltirilgan hududlar orasida Şoş ham zikr etilgan [22].

Şoş haqida ma’lumot beruvçi arab manbalaridan biri Abulqosim ibn Havqalning arab tilidagi “Yöllar va mamlakatlar haqida kitob (Kitob ul-masolik va-l-mamolik)” asari hisoblanadi [12; 23]. Unda Toşkent vohasining ikki tarixiy-madaniy viloyati Şoş va Iloq tavsif etilgan. Muallifga köra, Şoş va Iloq eniga (şarqdan ğarbga) ikki kunlik va böyiga (janubdan şimolga) uç kunlik masofa hisoblangan. Ta’rif etilişiça, Xuroson va Movarounnahrda jome masjidlari köp bölib, qişloqlari obod, qurilişlarining kölami va ustalarining san’ati borasida Şoşga teng keladigan şahar bölmagan. Qolaversa, Şoş ahlining kuçli irodasi va mardligiga bas kelib bölmas edi. Bu voha Movarounnahrdagi eng körkam ölkalaridan biri bölganligini isbotlaydi [12; 23]. Jumladan, manbadan keltirilişiça, Şoş ahli istiqomat qiladigan uylar paxsa yoki guvaladan qurilgan. Har bir xonadon devorlar bilan öralgan bölib, içki hovlidan mintaqa tabiati va an’anasiga xos ravişda doimiy oqib turuvçi ariqlar ötgan. Bu ariqlar şaharning yoz paytidagi jaziramasida hovli içidagi salqin mikroiqlimning hosil bölişiga, şu xonadon sohiblarining mazkur suvdan iste’mol uçun foydalanişiga va qolaversa, ariq böylariga ekilgan daraxtlarning gurkurab turişiga xizmat qilgan. Ta’kidlaş joizki, şahardagi köp sonli ariq va anhorlar böylab ekilgan mevali va manzarali daraxtlar, xonadanlarda va şahar atrofi dalalarida yastangan uzumzorlar uzoqdan kelayotgan karvonlar umidbaxşlik ato etgan. Bu esa şaharda behisob karvonsaroylar qurilişiga imkon bergan.

Şoş-Iloq tarixiy-madaniy viloyatining boşqa şaharlari ham Ibn Havqal nazaridan çetda qolmagan. Ibn Havqalning “Kitob al-masolik val-mamolik (Yöllar va mamlakatlar kitobi)” asaridagi köplab ma’lumotlar arxeologik izlanişlar orqali öz tasdiğini topgan [15]. Jumladan, Banokat (keyinçalik Şohruhiya) va Çinonçket (Çinoz)lar öşa davrning muhim şaharlardan biriga aylangan. Xaraşket (Qanqa yodgorligi) esa, Ibn Havqal davrida özining iqtisodiy va siyosiy ahamiyati bilan vohaning yirik markazlaridan biri bölgan [15]. Vohasidagi yirik şaharlardan: Nujuket (Xonobod), Dinfiğoniy yoki Dinfağnket, Farnket (Parkent), Şoş poytaxti yoki Madinat uş-Şoş – Binkat kabi yirik şaharlari alohida ta’rif etiladi [15]. Uning yozişiça, Binkat ark va şahristondan iborat bölib, ular devor bilan öralgan. Şahriston yonida esa rabot, boğ va turar-joy binolari mavjud bölgan. Rabot ham devor bilan örab olingan. Ibn Havqalga köra, şahar arkida ikkita darvoza bölib, biri rabot tomonga biri şahriston tomonga çiqilgan.

Mahmud Qoşğariyning “Devoni luğat-turk” asaridagi ma’lumotga köra, XI–XII asrlarda Çoçning boş şahri Toşkent nomi “Tarkan” deb ham yuritilgan [36].Abu Sa’ad as-Sam’aniyning “Nasablar kitobi” (“Kitab al-ansab”) asarida Movarounnahr va Xuroson geografik örinlari va tarixiy-madaniy yodgorliklari, olim-allomalari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bir qator ölkalar va şaharni keltirib, ular orasida Çoç va uning tarkibidagi Iloqda joylaşgan şaharlar va ulardagi tarixiy-madaniy obidalar, şuningdek, Şoş va Iloqdagi şahar hamda qişloqlaridan bölgan hadisşunos, fiqhşunoslar töğrisida töxtab ötgan [5; 27].

Fors tilli manbalar orasida X asrga oid muallifi noma’lum bölgan “Olam (Yer)ning maşriqdan mağribgaça bölgan çegaralari haqida kitob” (Kitab hudud ul-alam min al-maşriq ilal-mağrib)”, ya’ni “Hudud ul-olam” asari kiradi. Unda Çoç vohasi ikki ölkaga ajratilgan. Jumladan, Çoç haqida şunday ma’lumotlar bergan:

“Çoç – katta va obod nohiyat; odamlari botir, uruşga şay va badavlat; noz-ne’mat möl. U yerda ketmon, kamon öqi va xalanj çöpi (sovut) köp tayyorlanadi. Qadimda uning podşohlari muxtoriyat (huquqiga ega) podşohlar bölganlar” [48]. Manbada Çoç ölkasiga qaraşli bölgan: Bikas, Navijkas, Karjokas, Turkas, Xotunkas, Dam’onkas, Banokat, Xarsankat, Xarajkat(Çinaçkat), Şturkas, Sabkas, Nujokat, Kankarol kabi şahar va şaharçalarning nomi keltirilgan. Iloq haqida ma’lumot bergan muallif: “Iloq – toğ va çöllar oraliğida joylaşgan katta nohiyat. Bu nohiyat hokimlarini Iloq dehqoni ataydilar, qadimda bu nohiyatdagi dehqonlar muxtoriyat hokimlar edi”, deb yozadi. Uning: Navkas, Kuhisim, Daxkas, Yamudliğ, Abrliğ, Iytulax , Alaxjos, Somisibrak, Barfaksum, Hanax, Xos, Ğuzjand, Tukas, Kalaşijak, Xambarak, Ardlonkas, Satbağvo, Naxnoh, Kurol, Ğazak, Xayvol, Varzöl, Kabariya, Bağravonak, Abradkas, Bağvikas, Farnkas, Jabğökas, Şakokib, Yonjibos, Tunkat-Buxornon, Yolopon kabi katta-kiçik şahar haqida ma’lumotlar bergan [48]. Manbada keltirilgan ayrim joy nomlari, jumladan Iloq hududidagi şaharlar Jabğukas, Farnkas kabilar Çoç viloyatiga mansubligi tadqiqotlardan ma’lum. Qolaversa, muallif vohaning asosiy suv manbalaridan bölgan Çirçiq - Parak daryosi haqida: “Yana biri Parak daryosi (Çirçiq – Omonullo Böriyev, keyingi örinlarda – O.B.). Xallux toği (bu yerda Çotqol tizmasi – O.B.) yon bağridan boşlanadi, janub tomonga oqib tuşadi. Çoç hududidan ötadi, Banokat va Qalos devori (Keles yaqinidagi köçmançilar xurujiga qarşi qurilgan devor – O.B.) oraliğida Özgand (Sirdaryoning yuqori va örta oqimlari qismi – Azimxöja Otaxöjayev, keyingi örinlarda – A.O.) daryosiga quyiladi. Bu suvlar hammasi birlaşgan, Çoç daryosi (Sirdaryo – O.B., örta oqimidan quyi oqimi qadar – A.O.) nomini oladi” [9]. Manbaning tahliliga köra, Çoç vohasi özining toğ oldi mintaqasiga xos, çöldan uzoq bölgan nisbatan salqin tabiati bilan, aholisining islom diniga e’tiqodi va aksariyati turkiy ekanligi bilan, hukmdorlarining azaldan mustaqil siyosat yuritişga moyilligi bilan ajralib turgan. Çoç vohasi, boşqa viloyatlar bilan jumladan Farğona bilan Çotqol-Qurama tizmasi orqali, Ustruşona bilan Sirdaryo orqali çegaralangan. Bularning barçasi vohaning öziga xos joylaşuviga zamin hozirlagan.

“Hudud ul-olam”da keltirilganidek, Çoç vohasi Movarounnahrning tabiiy zaxiralarga ayniqsa, kumuş va qimmat baho toşlariga boy hududi hisoblangani tadqiqotlardan ma’lum [15; 16]. Manbaga köra, Çoçning ma’muriy markazi Binkat (Toşkent şahri), Iloqning ma’muriy markazi Navkas (Navkat, Nukat – hozirgi Nurafşon – Töytepa şahri) bölgan [15].

“Hudud ul-olam”da keltirilgan Çoç-Iloq haqidagi tafsilotlar bu ölkaning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti namoyon qilgan [14].

Fors tilli manbalar orasida Somoniylar hukmdori Abdul-Malik ibn Nuhning vaziri Abu Ali Muhammad ibn Muhammad Ba’lamiyning “Payğambarlar va podşolar tarixi (Tarix ar-rasul va-l-malik)” asari Tabariy qayd etgan tarixiy voqealarni töldirgani bilan ahamiyatlidir [26].

Abu Said Gardiziyning “Xabarlar ziynati (Zayn al-axbor)” asarida ham XI–XII asrdagi voqealar bayon etilgan. Ular orasida Şoş va turkiy qavmlar bilan boğliq ayrim tafsilotlarga örin berilgan [26].

Abulqosim Firdavsiyning “Şohnoma” asarida Çoç özining kamon va öq-yoylari bilan maşhurligi haqida misralar mavjud.

Çoç vohasi tarixini yoritişda numizmatik materiallar alohida qimmatli manba hisoblanadi. Tangalarda, odatda, Çoç (keyingi asrlarda – Şoş-Iloq) hukmdorlarining ism-şariflari, unvonlari, tamğa belgilari, antropologik qiyofasi, şuningdek erkak va ayol (xoqon va xotun)larning marosim boş kiyimlaridagi tasvirlari aks etgan. Akademik E.V. Rtveladze numizmatik ma’lumotlarda “Çoç” atamasi I asrdan boşlab uçraşini qayd etgan bölsa-da, köpçilik boşqa tangaşunoslar Çoç vohasida tangalar zarb etilişi II–III asrlardan boşlangan deb hisoblaydilar [41].

Çoç vohasidan topilgan ilk asrlarga oid mis tangalarda suğdiy yozuvli jumlalar aks etgan. Sönggi yillarda bu yozuvlarni öqişda, ayniqsa, Ğ. Boboyorovning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega böldi. Uşbu davr tangalarida Ğarbiy Turk xoqonligi hukmdorlarining ism va unvonlari – “Tardu xoqon”, “Jabğu-xoqon”, “Tun jabğu-xoqon” va “Ilohiy Tun jabğu-xoqon” kabi öz aksini topgan. Ular asosan VI–VIII asrlarga oid bölib, “qadimgi turk tangalari” guruhiga mansub [2; 42]. Bu tangalarning aksariyati aynan Çoç vohasidagi mahalliy zarbxonalarda işlab çiqarilgan bölib, Farğona hukmdorlarining Quvada zarb etilgan turk-runiy va suğdiy bitikli tangalaridan farqli ravişda, Çoç tangalari asosan suğdiy tilli yozuvga ega bölgan [14].

Çoç tangalarining ikonografiyasi ham öziga xos turkiy an’analarga moslaştirilgan. Xususan, tangalarda hukmdor (yabğu yoki xoqon) bilan bir qatorda unga yonma-yon joylaştirilgan malika (xotun) tasviri uçraydi – bu turkiy xalqlarda ayolning ijtimoiy mavqei baland bölganini aks ettiradi. Tadqiqotçi L.S. Baratovaning ta’kidlaşiça, tangalardagi bunday tasvirlar qadimgi turkiy xalqlardagi onalik, himoya va farovonlik ramzi hisoblangan Umay ilohasi bilan boğliq bölişi mumkin [10].

IX–XII asrda Somoniylar va Qoraxoniylar hukmronligi davrida zarb etilgan tangalarning sifati va mazmunida ilk asrlardagidan katta özgarişlar röy bergan. Bu davr tangalarida misdan taşqari kumuş va ayrim hollarda oltin tangalar ham zarb etilgan. Mazmunan, bu tangalarda islomiy kalimalar, zarb qilingan vaqti va joyi öz aksini topgan. Jumladan, Binkat (Toşkent), Banokat (Şohruxiya), Xaraşkat (Qanqa), Tunkat (Imloq), Novkat (Ulkantöytepa), Çinançikat (Çinoz), Gannadj (Şoş şaharlaridan biri), Daxkat va Xumrak (Iloq şaharlari) kabi şaharlarda zarb etilgan tangalarda bular kuzatiladi. Bu holat IX–XII asrlarda Şoş vohasi va unga boşqaruv-iqtisodiy qaram bölgan tuman-şaharlarning iqtisodiy va siyosiy holati bir qadar mustahkamlanganligini körsatadi [29; 30].

Yozma manbalarda keltirilgan ma’lumotlarning qimmatini oşirib turuvçi muhim omillardan biri – ularning arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan qançalik mos kelişidir. Olib borilgan maxsus tadqiqotlar şuni körsatdiki, yozma manbalarda tilga olingan Xaraşkat, Daxkat, Arbilax, Jabğukat, Kabarna, Kadok, Farankat kabi örta asr toponimlari aniq arxeologik obyektlar ya’ni, hozirgi kunda ma’lum bölgan tepaliklar va şahar xarobalari bilan aniq muvofiqligini isbotlaş imkonini berdi. Xususan, Xaraşkat – Qanqa yodgorligi, Banokat – Şohruhiya, Çinonçkat – Çinoz va boşqa IX–XII asr şaharlarning örnida aniqlandi. Bunday moslik Toşkent vohasining tarixiy topografiyasi va toponimikasi böyiça yanada çuqur, maxsus

tadqiqotlar olib boriş zaruratini körsatadi, çunki, bu hudud Yevrosiyoning yirik xöjalik-madaniy mintaqalari, şuningdek, ötroq dehqonçilik va köçmançi çorvaçilik an'analari tutaşgan çegarada joylaşgan. Yozma va arxeologik manbalarning qiyosiy tahlili, şuningdek, vohaning etnomadaniy munosabatlari tarixini yanada töliqroq tiklaş imkonini beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Çoç (Şoş) vohasi tarixini, jumladan uning siyosiy tuzilişi, geografik örni, hunarmandçiligi va şahar-qişloqlari tarixini yoritişda suğdiy, qadimgi fors, xitoy, arab va fors tilli yozma manbalar, şuningdek vohadan topilgan arxeologik aşyolardagi (sopol buyumlar, tangalar va boşqa) bitiklar muhim va bir-birini töldiruvçi manba sifatida xizmat qiladi. Uşbu manbalarning qiyosiy tahlili bir qator muhim xulosalar çiqarişga imkon beradi:

birinçidan, Çoç atamasi yozma manbalarda ilk bor milodiy II–III asrlarda, siyosiy birlik nomi sifatida tilga olingan bölib, bu vohada allaqaçon öşa davrda mustahkam siyosiy-ma'muriy tuzilma mavjud bölganini körsatadi;

ikkinçidan, xitoy yilnomalari Çoç davlatining V asrdayoq mustaqil taşqi siyosat yurita olgani, Xitoy bilan rasmiy diplomatik aloqalarga kirgani haqida qimmatli ma'lumotlar beradi;

uçinçidan, VIII asrdan boşlab arab va fors tilli manbalarning soni va tafsilot darajasi keskin ortadi – bu davr manbalari vohaning şaharsozligi, xöjaligi, tabiiy boyliklari va ijtimoiy tuzilişi haqida batafsil ma'lumot beradi;

törtinçidan, numizmatik manbalar yozma va arxeologik ma'lumotlarni töldirib, voha hukmdorlarining siyosiy unvonlari, diniy-mafkuraviy tasavvurlari hamda iqtisodiy taraqqiyot darajasi haqida qöşimça dalillar taqdim etadi;

beşinçidan, yozma manbalardagi toponimlarning aksariyat qismi zamonaviy arxeologik obyektlar bilan aniq mosligi – bu manbalarning tarixiy işonçliligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Şunday qilib, köp tilli va köp janrli yozma manbalarning özaro qiyosiy tahlili, ularni arxeologik ma'lumotlar bilan boyitilgan holda örganiş Çoç vohasining qadimgi va örta asrlar tarixi hamda madaniyatini yanada töliqroq va xolisona tiklaş imkonini beradi. Kelgusida bu yönalişda, ayniqsa tarixiy toponimika va etno-madaniy munosabatlar tarixi böyiça maxsus, kompleks tadqiqotlar olib boriş muhim ilmiy ahamiyatga ega böladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RÖYXATI

1. Bailey H. W. Languages of the Saka. Handbuch der Orientalistik, Linguistik. – Keiden, 1958. – P. 133.

2. Baratova L. Alttürkische Münzen Mittelasiens aus dem 6. – 10. Jh. N. Chr. Typologie, Ikonographie, historische Interpretation // Archalogische Mitteilungen aus Iran und Turan (AMIT). – Band 31. – Berlin, 1999. – P. 281–283.

3. Henning W. B. Sogdica. – London. 1940. – P. 9.

4. Абаев В. И. Скифский быт и реформа Зороастра // АО. – 1956. – № 24. – С. 44–45.

5. Абдулкарим ас-Саъмоний. Насабнома (ал-Ансоб) (VIII–XII асрда яшаган ўзбекистонлик олимлар ҳақида маълумот). – Тошкент, 2017. 143–149-бетлар.

6. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. – Тошкент, 1963. 2-жилд. 7, 20, 232-бетлар.

7. Авесто: тарихий-адабий ёдгорлик. Форс тилидан Аскар Маркам таржимаси, масъул муҳаррир ва нашрга тайёрловчи Нарзулла Жўраев. – Тошкент, 2015. 460, 462, 677.

8. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент, 2015. 57, 219, 277–284-бетлар.

9. Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса (VI–VIII вв. н.э.). – Ташкент, 2007. – 120 стр.

10. Баратова Л.С. Византийско-согдийско-тюркский симбиоз на монетах Средней Азии // Second International Congress on Turkic Civilization. – Bishkek, 2005. – S. 419.

11. Бартольд В.В. Иран. Исторические очерки. Соч. XII. – М., 1971. – С. 231.

12. Бетгер К.Е. Извлечение из книги «Путы и страны» Абу-л-Касыма ибн Хаукаля // Тр. САГУ. – Вып. IV. – Ташкент, 1957.

13. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавшихся в Средней Азии в древние времена. – Том 1. – Алматы. 1998. – С. 48–49, 51, 92, 99.

14. Бобоёров Ғ. Чоч тарихидан лавҳалар. – Тошкент, 2010. 168 бет.

15. Буряков Ю.Ф. К истории раннесредневекового Чача // O‘zbekiston tarixi. 2002. – № 3. – С. 11–19

16. Буряков Ю.Ф. Горное дело и металлургия средневекового Илака. – Москва, 1974. – 140 с.

17. Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности. VII в. до н. э. – VIII в. н. э. – Москва, 1999.

18. Гафуров Б.Г. Таджики. Кн. 1. – Душанбе: Ирфан, 1989. – С. 189–190.

19. Геродот. История в девяти книгах / Пер. и прим. Г.А. Стратановского. Книга VII. – Ленинград, 1972. – С. 6, .333.

20. Грене Ф. Новые свидетельства о Нахшабе и Кеше античного периода // Роль города Кеша в истории мировой цивилизации. – Ташкент–Карши, 2006. – С. 34–36.

21. Древние авторы о Средней Азии (VI до н. э. – III в. н. э.). – Ташкент, 1940. – С. 125–130, 133.

22. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та’рих. Полный свод истории. Избранные отрывки / Пер. с араб., прим. и коммен. П.Г. Булгакова. Доп. к пер., прим. И коммент., введ. и указ. Ш.С. Камолиддина. – Ташкент, 2006. – С. 21.

23. Ибн Ҳавқал. Моваройуннаҳр (Китоб сурат ал-ард) / Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш.С. Камолиддин. – Тошкент, 2011. – С. 23, 30-бетлар.

24. Илҳомов Ў.И., Хўжаназаров М. Қадимги форс битиктошлари // Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. 1-жилд (Ўзбекистон энг қадимги ва

қадимги даврларда. Полеалит даври – милодий V аср). – Тошкент, 2014. 151-бет.

25. История ат-Табари. – Ташкент, 1987. – С. 143-145.

26. Источниковедение Кыргызстана (с древности до конца XIX в.). – Бешкек, 2004. – С. 15–17, 22, 92, 94, 98.

27. Камолиддин Ш. «Китаб ал-Ансаб» Абу Са‘Да ‘Абд ал-Карима ибн Мухаммада ас-Сам‘ани как источник по истории и истории культуры Средней Азии. – Ташкент, 1993. – С. 123–124.

28. Камолиддин Ш. Чоч (Шош) топониминиng келиб чиқиши ҳақида // Moziydan sado. – Тошкент, 2009. – № 2. 18-бет.

29. Кочнев Б. Д. Нумизматическая история караханидского каганата (991 – 1209 гг.). Часть I. – София, 2006. 167 стр.

30. Кочнев Б. Д. Шаш (Чач) и Илак при Караханидах (по нумизматическим данным) // Древняя и средневековая культура Чача. – Т., 1979. С. 110–166.

31. Қадимги тарихчилар Ўрта Осиё ҳақида. – Тошкент, 2008. 53, 55–57-бетлар.

32. Латышев В. В. Известия древних писателей о Скифии и Кавказе // Вестник древней истории. 1947. – № 1. – С. 253–279.

33. Литвинский Б.А. Древние кочевники. – М., 1972. – С. 150, 156.

34. Литвинский Б.А. Саки, которые за Согдом // Труды АН ТаджССР. 1960. Том CXX. – С. 91–94.

35. Луконин В. Г. Кушано-сасанидские монеты // Эпиграфика Востока. – Вып. 18. 1967. – С. 16.

36. Махмуд Қошғорий. Туркий сўзлар девони (Девони луғатит турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталибов. 3 томлик. – Тошкент, 1960–1963. 1-том. 414-бет.

37. Невелева С. Л. Махабхарата изучения древноиндийского эпоса. – Москва: Наука, 1991. – С. 60.

38. Отахўжаев А. Тошкент воҳаси қадимги давр ёзма манбаларида // O‘zbekistonn tarixi. 2020. – 4-сон. 56-61-бетлар.

39. Петров К. И. Древнегреческие и древнеримские сочинения // Источниковедение Кыргызстана. – Бешкек, 2004. – С. 22–27.

40. Пугаченкова Г.А. Предметы иноземного импорта на среднеазиатских трассах Великого шелкового пути // На среднеазиатских трассах Великого шелкового пути. Очерки истории и культуры. – Ташкент, 1990. – С. 28.

41. Ртвеладзе Э.В. Древние и раннесредневековые монеты историко-культурных областей Узбекистана. – Том I. – Ташкент, 2002. – С. 239.

42. Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. – Москва, 1981. – С. 5, 14, 59.

43. Страбон. География в 17 книгах. Книга XI. VIII. 8. – М., 1964. – С. 478, 483.

44. Струве В.В. Датировка Бехистунской надписи // Вестник древней истории. 1952. №1. – С. 26–48.

45. Ходжаев А. Наиболее ранние сведения китайских источников о государстве Шаш (Ташкент) // O‘zbekston tarixi. 2005. – С. 3–18.

46. Хўжаев А. Суғдийларнинг Хитойга бориб қолиши // Мозийдан садо. 2002. – №2 (14). 42-бет.

47. Хўжаев А. Ўзбек халқининг этник тарихини ўрганишда қадимги хитой манбаларининг аҳамияти // O‘zbekiston tarixi. 2020. – №3. – 85-бет.

48. Ҳудуд ул-олам (Моваройуннаҳр тасвифи) / форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи Омонулло Бўриев. – Тошкент, 2008. – 9, 18, 64-бетлар.

Нормуродов Д. Р.
PhD., доцент кафедры «Археологии и этнологии»
Национальный университет Узбекистана
d.r.normurodov@mail.ru

О ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ ПО ИСТОРИИ И КУЛЬТУРЕ ТАШКЕНТСКОГО ОАЗИСА В ДРЕВНОСТИ И В ПЕРИОД РАЗВИТОГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ

АННОТАЦИЯ

В статье проведён комплексный анализ письменных источников по истории и культуре Ташкентского оазиса в древности и в период развитого Средневековья. На основе древнейшего письменного источника – «Авесты», наскальных надписей Ахеменидского периода, античных греческих и римских источников, китайских источников раннего Средневековья, арабо-персидских письменных источников периода развитого Средневековья, а также надписей на археологических предметах и монетах рассматриваются этническая, географическая, социально-экономическая, политическая и культурная жизнь оазиса. В исследовании дана оценка различным категориям источников, степени их достоверности и информативности. Систематизированы сведения письменных источников о сакских племенах, населявших Ташкентский оазис в древности, тюрко-согдийском симбиозе в раннем Средневековье, городах и сельских поселениях периода развитого Средневековья, экономике, а также религиозных представлениях и культурных традициях населения. Отмечается важное значение этих источников для изучения культурных связей Ташкентского оазиса с другими регионами Центральной Азии.

Ключевые слова: Чач, Шаш, Илак, Ташкентский оазис, античность, раннее средневековье, развитое средневековье, письменные источники, Авеста.

Normurodov D. R.
PhD., associate professor at the department of «Archeology and ethnology»
National university of Uzbekistan
d.r.normurodov@mail.ru

ON WRITTEN SOURCES CONCERNING THE HISTORY AND CULTURE OF THE TASHKENT OASIS IN ANTIQUITY AND THE HIGH MIDDLE AGES

ABSTRACT

The article provides a comprehensive analysis of written sources concerning the history and culture of the Tashkent Oasis in antiquity and the High Middle Ages. Based on the earliest written source, the *Avesta*, rock inscriptions dating to the Achaemenid period, ancient Greek and Roman sources, Chinese sources of the Early Middle Ages, Arabic and Persian written sources of the High Middle Ages, as well as inscriptions on archaeological artifacts and coins, the ethnic, geographical, socio-economic, political, and cultural life of the oasis is examined. The study evaluates different categories of sources, their reliability, and their degree of informativeness. Written evidence concerning the Saka tribes who inhabited the Tashkent Oasis in antiquity, the Turkic-Sogdian symbiosis during the Early Middle Ages, cities and rural settlements of the High Middle Ages, the economy, as well as the religious beliefs and cultural traditions of the population is systematized. The article emphasizes the importance of these sources for studying the cultural interactions between the Tashkent Oasis and other regions of Central Asia.

Keywords: Chach, Shash, Ilak, Tashkent Oasis, antiquity, Early Middle Ages, High Middle Ages, written sources, Avesta.